

**MUSIQA MASHG`ULOTLARIDA FORTEPIANO JO`RNAVOZLIGINI  
TASHKIL ETISHNING ASOSIY MAQSAD VA VAZIFALARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7743499>



**ELSEVIER**



**Received:** 16-03-2023

**Accepted:** 17-03-2023

**Published:** 22-03-2023

**Bozorova Nuriya Musurmonqulovna**

Termiz pedagogika instituti  
2-kurs magistranti



**Abstract:** Mazkur maqloda fortepiano jo`rnavozligini tashkil etishning asosiy yo`nalishlari, unga qo`yiladigan vazifalar haqida mulohazalar mavjud.

**Keywords:** Fortepiano, rayal, interpretatsiya, musiqiy ijob, jo`rnavozlik, badiiy dunyoqarash

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

## KIRISH

Istiqlol sharofati bilan Vatanimizda keyingi yillarda muhim ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o`zgarishlar ro`y berdi. Bu o`zgarishlar o`z navbatida kishilarning ma`naviy dunyoqarashiga, milliy madaniyat va san`atning rivojlanish jarayoniga ham g`oyat ulkan darajada ijobiy ta`sir ko`rsatdi. Shu paytgacha e`tibordan chetda qolib ketgan milliy qadriyatlarimiz, madaniy merosimiz, tariximiz chuqur o`rganilib, keng xalq ommasiga yetkazib berilmoqda.

## ADABIYOTLAR SHARHI

XVIII-asrda fortepiano cholg`usi bat afsil yangi va oxirgi namunasiga erihdi. XX-asr elektronlashtirilgan klavishli cholg`ular, albatta fortepianoning ayrim sunniy sifatlari bilan yuzaga keldi. Bu emasmi, fortepianoni qarigani ?, albatta - yo`q !. Bir ma`noda biz shuni bilamizkim, qanchalik insonlar fortepianoda ijob etishni havas qilib kelganlar va bugungi kunga kelib xohlovchilarning chegarasi ham yo`q. demak yer yuzida milliardlab insonlar fortepianoda ijob etishni xoxlaydilar.

Biroq bir jahon cholg`u yo ular qanday imkoniyatlarga ega bo`lmisin, bar- bir "Pianino" yo "Rayal" - bilan solishtirib bo`lmaydi. Bular jahonning eng sevimli sozlari ichida shoxona cholg`ularidir. Ular ham solist hamda jo`rnavozdirlar. Bir-qatorda uy ijrochiligi, ijodiy faoliyatlar va boshqa musiqiy bahramandlikka xos yagona cholg`udir. Shuningdek, teatr, salonlar, to`y zallari, konsertlarda va umuman jahon cholg`ulariga jo`rnavozdir.

Fortepiano yo Rayal jahonning tengsiz va raqobatsiz cholg`ularidir. Yaqinroq qilib aytganda har ikkala cholg`u , aslida bir cholg`udir. Ularning bir-birovidan farqi, faqat baland tovush eshitilishi va klavishlarining sub - kontr oktavasida

tertsiya yo kvartagacha intervallar qo'shilgani hamda beshinchi oktavadagi qurilmasida ham xuddi shunday farqiyatlarga ega bo'lganligidandir. Shuningdek, biri gorizontal (yotqizilgan), ikkinchisi esa vertikal (tik) xolatlidir. Bir ma'noda ushbu cholg'u jahon cholg'ulariga jo'rnavoz va u yo bu turli janrlarining kuzatuvchisidir.

XX-asr kompozitorlari tomonidan hayrotomuz fortepiyanoning boy va betakror sehrli imkoniyatlarini, butunlikda gavdalanishini ifoda etilishda yozilgan haqiqiy musiqa janrlari-Debyusi, Ravel, Prokofiev, Shastakovich va shuningdek, Betxoven, Shopen, Raxmaninov asarlarida insoniyat hissiyotining boy tassovurlari, kayfiyat, u yo bu manzaraning ruhiyoti va qon semantikasi bilan bog'liq kechayotgan manzaralarning badiyilagini ko'z oldimizga keltirishimiz mumkin.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Bugungi davrimiz milliy qadriyatlarimizning qayta tiklanish jarayoni madaniy merosimizni, shu jumladan asrlar davomida shakllangan badiiy an'analarmizni har tomonlama o'rganishni taqozo etmoqda. Bu borada xalqimizning beba ho ma'naviy mulki bo'lgan an'naviy sozanda bastakorlik san'ati muhim va qimmatli manbalardan biri bo'lib, ularning keng miqyosda tadqiq etish masalasi hozirgi vaqtida alohida kasb etadi.

Hech kimga sir emaski, bastakorlik ijodi masalasiga yaqin-yaqinlargacha asosan g'arbiy musiqashunoslikda qabul qilingan mezonlar bilan yondoshildi. Shuningdek kompozitorlik ijodi uchun birdan bir xos bo'lgan nuqtalar umuman zamonaviy musiqiy ijodkorlikning shartlariga aylandi.

Respublika hukumati, televide niye, turli jamoat tashkilotlari, xususiy tadbirkorlar homiyligida har yili ko'plab zamonaviy musiqa ko'rik-tanlovlari, san'at festivallari o'tkazilib, eng yaxshi ijodkorlar va ijrochilar xalqqa tanitilib, rag'batlantirilib borilmoqda. Bunga "Anor", "Kamolot", "Nihol", "Shu aziz Vatan barchamizniki", "O'zbekiston-Vatanim manim" kabi ko'rik-tanlovlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Qilinayotgan bunday ishlar natijasida zamonaviy musiqamiz tabiiy rivojlanish mobaynida o'ziga eng to'g'ri yo'lni tanlab oladi. Zero, zamonaviy musiqaning maqsad va vazifalari ham jamiyat va xalq ehtiyojaridan kelib chiqqan holda, o'z xalqiga xizmat qilish va milliy madaniyat rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shishdan iboratdir.

Mustaqil davlatimizning rivojlanish jarayonida milliy ma'naviyatimizni anglash, yosh avlodda badiiy tafakkurni rivojlantirish eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib turibdi. Musiqa madaniyati fani o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va ahloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlikni tarbiyalashga, ijodiy mahorat va badiiy didni o'stirishga xizmat qiladi. Musiqa madaniyati fanining bunday imkoniyatlari yangi avlod tarbiyasida, ularni komil inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, umumiyl o'rtalimning

Davlat ta'lif standartiga asoslangan musiqiy ta'limni shakllantirishda milliy musiqiy merosimiz, jahon musiqa san'ati bilan bir qatorda zamonaviy musiqaga ham katta e'tibor berilgan, chunki yoshlarning ham aynan zamonaviy musiqaga qiziqishlari juda kuchlidir. DTS ga asoslangan musiqiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni nafaqat zamonaviy estrada, balki barcha janrlardagi zamonaviy musiqa bilan tanishtirish, ularni mustaqil idrok etib, tahlil etishga o'rgatish talab etiladi. Bu o'rinda zamonaviy musiqadan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish hamda o'quvchilarda yuksak badiiy didni, nafosatni, milliy g'urur, vatanparvarlik hissini tarbiyalashda foydalanish tavsiya etiladi.

Zamonaviy musiqaning rivojlanishi har doim ham bir xil davom etavermaydi. Unda davr ruhiga mos ravishda goh u, goh bu yo'nalishlar yoki janrlar alohida tarzda rivojlanadi. Shuni aytib o'tishimiz kerakki, keng ma'nodagi zamonaviylik nafaqat shu davrda yaratilgan musiqa, balki o'tmishda yaratilgan va o'zining yuksak badiiy qiymati bilan hozir ham insonlarga estetik zavq bag'ishlayotgan mumtoz va boshqa musiqiy asarlarni ham o'z ichiga oladi. Shu bilan birga har bir davrning ham o'ziga xos musiqiy ifoda "tili" mavjuddir. Buni biz har bir davr musiqasining o'ziga xos kuy ohangi borligi bilan farqlashimiz mumkin. Masalan, "Mahallada duv-duv gap", "Maftuningman" kabi badiiy filmlar bilan hozirgi chiqayotgan filmlar musiqalari orasida sezilarli farq borligini ko'ramiz. Shuningdek, ba'zi yillarda zamonaviy musiqada "jaz" uslubi keng tarqalgan bo'lsa, ba'zan "rok", "metall rok" quloqni qomatga keltirgan. O'z davrida o'zbek maqomlari yoki Italiya, Germaniya operalari ham o'ta faol rivojlanish bosqichlarida bo'lgan, lekin ular hozir ham xalq orasida ko'plab muxlislariga, ijrochilariga ega, ya'ni zamonaviyligini saqlab qolgan.

## NATIJALAR

Mashg'ulotlarda talabalarning texnik mukammalligining oshirilishiga muhim e'tibor qaratiladi. Shuning uchun o'qitish dasturiga instruktiv asarlar-mashqlar, etyudlar, virtuoze kuylar kiritilgan.

Pianinochini tarbiyalashning boshqa yo'nalishi - interpretatsiya muammosi, ya'ni muallif g'oyasini amalga oshirish ancha istiqbolli bo'lib ko'rindi. Bu yo'nalish, masalan, I.Gummel qo'llanmasida yaqqol ko'rindi. Shu bilan birga parallel ravishda pianinochini bir tomonlama virtuoqlikka o'qitishning tor yo'llarini kengaytirish muammolarini yechish usullari ham axtarib ko'rildi. Shu ma'noda F.List kabi novator musiqachining pedagogik faoliyati katta ahamiyatga egadir. Uning pedagog faoliyati, keng bilimli, o'zi ijro qilayotgan asarlar poetik mazmuniga chuqr kirib boruvchi va ularni o'z ijrosida tadbiq qila oluvchi musiqachini tarbiyalashga qaratilgan edi.

Hozirda fortepianoda ijro qilish san'ati eski maktablar davrlaridan ancha ilgarilab ketdi. Ko'plab yaxshi tayyorlangan o'qituvchi kadrlar yetishib chiqdi.

Fortepianoda o'qitish metodikalari o'zgardi. Pedagog va pianinochilar uchun bir qator bebaho qo'llanmalar yaratildi. Bir so'z bilan aytganda musiqiy cholg'ularda ommaviy o'qitishning sifat darajasi ancha yuqori darajaga o'sdi.

Lekin, bu hali bizning fortepiano amaliyotimizda bir qator kamchiliklar uchramaydi degan so'z emas. Bir qator muammolar o'zining yechilishini kutayotgan bo'lib, ular orasida o'z ahamiyati bo'yicha bиринчи о'rнларда turadigan, oldindan meros bo'lib kelayotgan rivojlovchi ta'lif muammolaridir.

Shunday qilib, fikrlar kurashi, ilg'or badiiy g'oyalar to'qnashuvi va har xil regressiv tendentsiyalar jo'rligida hozirgi zamon pianinochi va pedagoglarga ta'lif berishning eng yaxshi tamoyillari yuzaga keldi.

### XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har qanday janrdagi zamonaviy musiqa o'z zamonasining ruhidan kelib chiqqan holda, xalqning ruhiyatiga mos ravishda rivojlanib boradi. Demak, zamonaviy musiqa o'z xalqi ruhiga mos bo'lgani holda, boshqa xalqlar musiqasi bilan ijodiy uyg'unlashib, boyib, rivojlanib boradi.

Musiqiy ijro etish jo'rnavozlik va ansamblga bo'lib chalish ko'nikmalarini, improvizatsiya esa-klassik va jaz yo'nalishida mavjud bo'lgan garmoniyadagi bilimlarning amaliy qo'llanilishini o'z ichiga oladi. Ansambl ijrochiligi Fortepiano fanining maxsus ta'lif bo'limi. Ansamblida (bir xildagi yoki turli xildagi) ijro etish talabalarda:

- ✓ musiqiy negizning ko'p qirraligini tushunishida;
- ✓ hamkorlikda ijod qilish tushunchalarini egallahsha;
- ✓ badiiy dunyoqarashning real eshitish bilan bir-biriga bog'lanilishida yordam beradi.

Jo'rnavozlikni o'rganish, tinglashni va yakkanavoz cholg'u yoki yakkaxon ovozga bo'yishni ko'nikmalarini rivojlantiradi. Yengillatilgan matnlarning, dinamikalarining, pedalizatsiyaning va ularning jo'rnavozlikdagi ahamiyatga ega bo'lishi bo'yicha asosiy ko'nikmalarni shakllantiradi. Hamkorlikda ijro etish ko'nikmasi har bir mutaxassislikdagi musiqachi uchun zarur.

### ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. A.H.Jabborov. O'zbek kompozitorlari va musiqashunoslari. -T., 2004.
2. N.S.Yanov-Yanovskaya. Fortepiannaya muzika v sb. Iстория узбекской советской музыки ", II том-T. 1973.
3. T.A.Galovyans., E.S.Meyke. Kompozitori i muzikovedi Uzbekistana.-T.1999.
3. K.Zoirov. Umumiy fortepiano .-T. 2004.
4. Yan Pekker. Georgiy Mushel.-M. 1966.

5. A.Vohidov. Stilisticheskiye osobennosti prelyudii i fug G. Mushelya-T.1982.
6. Umarov Ma'mur. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi: darslik. - Toshkent: Yangi asr alodi, 2009. 293-b
7. Madina Nasretdinova, Dilshod Toshaliyev, & Durdon Raimjon Qizi Murodova (2022). AN'ANAVIY IJROCHILIK SAN'ATINING HOZIRGI DAVR MUAMMOLARI. Scientific progress, 3 (2), 846-850.
8. Madina Nasretdinova, Ismoil Rustamov, & Oybek Karimov (2022). MUSIQA SAN'ATINING HOZIRGI KUNDAGI O'RNI. Scientific progress, 3 (2), 841-845.